

SUN’IY INTELLEKT ASRIDA O‘ZBEKISTON YOSHLARINING
TARIXIY ONGI VA AKSIOLOGIK DUNYOQARASHINI
RIVOJLANTIRISH TAJRIBASI



<https://doi.org/10.24412/2181-1784-2025-24-329-336>

Asadova Dilnoza Innatovna

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

“Falsafa” kafedrasи katta o‘qituvchisi

Toshkent, O‘zbekiston

Annotatsiya: Mazkur maqolada sun’iy intellekt texnologiyalari keng rivojlanayotgan hozirgi davrda O‘zbekistonda yoshlarning tarixiy ongi va aksiologik dunyoqarashini shakllantirish masalasi ilmiy nuqtai nazardan yoritilgan. Tadqiqotda AI vositalaridan (masalan, interaktiv platformalar, virtual muzeylar, tarixiy simulyatsiyalar) foydalangan holda tarixiy bilim va milliy qadriyatlarni yosh avlodga samarali yetkazish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Globallashuv va raqamli transformatsiya jarayonlarida yoshlarning tarixiy tafakkurini mustahkamlash, ularni ma’naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalashda sun’iy intellektning ijtimoiy-pedagogik salohiyati ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, Prezident Shavkat Mirziyoyevning yoshlarga oid siyosiy nutqlari, xorijiy ilmiy tajribalar va zamonaviy raqamli texnologiyalar uyg‘unligida tarbiya jarayonining dolzarb jihatlari ochib berilgan. Maqola yoshlarning ma’naviy kamolotini ta’minlashda sun’iy intellekt asosida taklif etilgan amaliy yechimlarni ham o‘z ichiga oladi.

Kalit so‘zlar: mafkura, madaniyat, ma’rifat, ma’naviyat, axloq, ong, tarbiya, qadriyat, insonparvarlik, taraqqiyot.

**EXPERIENCE OF DEVELOPING HISTORICAL AWARENESS AND
AXIOLOGICAL WORLDVIEW OF UZBEKISTAN’S YOUTH IN THE
AGE OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE**

Abstract: This article examines, from a scientific perspective, the issue of shaping the historical consciousness and axiological worldview of Uzbek youth amid the rapid development of artificial intelligence technologies. It analyzes the possibilities of effectively transmitting historical knowledge and national values to the younger generation through AI tools such as interactive platforms, virtual museums, and historical simulations. The study highlights the socio-pedagogical potential of artificial intelligence in strengthening youth’s historical thinking and their spiritual and moral upbringing in the context of globalization and digital

transformation. Particular attention is given to the political speeches of President Shavkat Mirziyoyev on youth policy, foreign scholarly experience, and the current aspects of the educational process at the intersection of traditional values and modern digital technologies. The article also presents practical AI-based solutions aimed at ensuring the spiritual and moral development of youth.

Keywords: ideology, culture, enlightenment, spirituality, morality, consciousness, education, values, humanism, development.

ОПЫТ ФОРМИРОВАНИЯ ИСТОРИЧЕСКОГО СОЗНАНИЯ И АКСИОЛОГИЧЕСКОГО МИРОВОЗЗРЕНИЯ МОЛОДЕЖИ УЗБЕКИСТАНА В ЭПОХУ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА

Аннотация: В статье с научной точки зрения рассматриваются вопросы формирования исторического сознания и аксиологического мировоззрения молодежи Узбекистана в условиях стремительного развития технологий искусственного интеллекта. Анализируются возможности эффективной передачи исторических знаний и национальных ценностей молодому поколению с использованием инструментов ИИ, таких как интерактивные платформы, виртуальные музеи и исторические симуляции. Освещается социально-педагогический потенциал искусственного интеллекта в укреплении исторического мышления молодежи и их духовно-нравственном воспитании в контексте глобализации и цифровой трансформации. Особое внимание уделяется программным выступлениям Президента Шавката Мирзиёева по вопросам молодежной политики, зарубежному научному опыту, а также актуальным аспектам воспитательного процесса в сочетании с современными цифровыми технологиями. Статья также включает практические рекомендации на основе применения ИИ, направленные на обеспечение духовного развития молодежи.

Ключевые слова: идеология, культура, просвещение, духовность, нравственность, сознание, воспитание, ценности, гуманизм, развитие.

KIRISH

Jahonda globallashuv jarayonlari jadallahshgan, mafkuraviy va axborot tahdidlar kuchayib borayotgan hozirgi raqamli davrda millatlar uchun o‘z tarixiy merosini asrab-avaylash, shuningdek, demokratik va texnologik imkoniyatlardan foydalanib tarixiy tafakkur madaniyatini rivojlantirish dolzarb masalaga aylanmoqda. Xususan, sun’iy intellekt texnologiyalarining keng joriy etilishi

nafaqat ta’lim tizimini, balki yosh avlodning dunyoqarashi, qadriyatlar tizimi va tarixiy ongi shakllantirishga ham kuchli ta’sir o’tkazmoqda. Zamonaviy mafkuraviy kurash sharoitida ilmiy-amaliy asosda ustuvor yo‘nalishlarni aniqlash, yoshlarni zararli g‘oyalardan himoya qilishda tarixiy ong va madaniyatni ilg‘or texnologiyalar asosida rivojlantirishga intilish tobora kuchaymoqda. Shu jihatdan qaraganda, sun’iy intellekt vositalaridan (masalan, raqamlar tarixiy platformalar, AI asosidagi ta’limiy dasturlar, tarixiy simulyatsiyalar va chatbotlar) foydalanish orqali yoshlarning tarixiy xotirasi, milliy qadriyatlarga sadoqati va tanqidiy tafakkuri shakllantirilmoxda.

Jahon ilm-fanida ham sun’iy intellekt yordamida ijtimoiy taraqqiyot qonuniyatlarini, tarixiy ong va madaniyatning islohotlar samaradorligidagi rolini o‘rganishga qaratilgan fundamental va amaliy tadqiqotlar kengaymoqda. Ayniqsa, yoshlar qalbi va ongiga yuksak ma’naviyat, insonparvarlik, tarixiy xotira va tanqidiy tafakkur singdirishda sun’iy intellektning imkoniyatlaridan samarali foydalanish muhim strategik vazifaga aylangan. Bugungi kunda tarixiy tafakkur madaniyatining jamiyatdagi o‘rni, uning sun’iy intellekt yordamida vizual va interaktiv shakllarda taqdim etilishi, yoshlar ongida milliy o‘zlikni anglash, qadriyatlarni anglab yetish va mustahkamlash jarayonlarini kuchaytirmoqda. Shu asosda, tarixiy tafakkur madaniyatini shakllantiruvchi omillarni, ularning mantiqiy asoslarini va texnologik integratsiyasini o‘rganish dolzarb ilmiy yo‘nalishlardan biriga aylanmoqda.

Mamlakatimiz taraqqiyotining yangi bosqichida yosh avlod ongida tarixiy ong va tarixiy xotira tuyg‘usini tarbiyalash, o‘zbek xalqi va uning davlatchiligi tarixini xolisona o‘rganishning ilmiy asoslarini shakllantirishga oid islohotlar amalga oshirilmoqda. “Bir haqiqatni barchamiz chuqur anglab olishimiz kerak: milliy tarixni xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimizga milliy ruhda yetkazish, ularning qalbiga, shuuriga singdirish kerak. Aks holda uning tarbiyaviy ta’siri bo‘lmaydi. ...O‘tmishdagi yutuq va g‘alabalardan kuch-quvvat olib, xato va mag‘lubiyatlaridan xulosa va saboq chiqarib yashaydigan xalq o‘zining taraqqiyot yo‘li va kelajagini to‘g‘ri belgilay oladi. Biz yoshlarimizni tarixdan saboq olish, xulosa chiqarishga o‘rgatishimiz, ularni tarix ilmi, tarixiy tafakkur bilan qurollantirishimiz zarur” [1]. Shu nuqtai nazardan tarixiy tafakkurni milliy o‘zlikni anglash vositasi sifatida tadqiq etish, tarixiy bilim, tarixiy xotira, tarixiy ongning tarixiy haqiqatni ochish jarayonidagi dialektik aloqadorligini aniqlash muhim ahamiyat ega bo‘lib bormoqda.

ADABIYOTLAR TAHЛИILI VA METODLAR

Mazkur tadqiqot doirasida yoshlarning tarixiy ongi va aksiologik dunyoqarashini rivojlantirishga oid ilmiy manbalar va adabiyotlar tahlil qilindi.

Jahon va O‘zbekiston ilm-fanida yoshlardagi tarbiyasi, ma’naviy-axloqiy qadriyatlarini shakllantirish, tarixiy ong va xotirani rivojlantirishga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqotlar, maqolalar va monografiyalar o‘rganildi. Shu jumladan, O‘zbekiston Respublikasining yoshlardagi siyosati, ta’lim va ma’naviyat sohasiga oid qonun hujjatlari va normativ-huquqiy hujjatlari ham atroflicha tahlil qilindi. Mazkur maqolada yoshlarning tarixiy ongi va aksilogik dunyoqarashini rivojlantirish masalasini o‘rganishda quyidagi ilmiy tadqiqot metodlaridan foydalanildi.

Avvalo, tahlil va sintez metodi orqali tadqiqot mavzusi bo‘yicha mavjud ilmiy manbalar chuqur o‘rganildi. Ushbu metod yoshlarning tarixiy ongiga ta’sir etuvchi asosiy g‘oyalarni ajratish va ularni umumlashtirish imkonini berdi. Natijada yoshlarning tarixiy ongini shakllantirishga xizmat qiluvchi nazariy tamoyillar aniqlab olindi.

Ikkinchidan, tarixiy-tahliliy metod yordamida yoshlarning tarixiy ongini shakllantirishga oid tarixiy jarayonlar va ularning ta’sir omillari o‘rganildi. Tarixiy hodisalar va shaxslar ta’siri yoshlarning ma’naviy va axloqiy rivojlanishida qanday rol o‘ynagani tahlil qilindi. Bu yondashuv yoshlarning tarixiy bilimlarini kengaytirish va milliy qadriyatlarni anglashiga yordam beradi.

Solishtirma metod esa yoshlardagi tarbiyasi bo‘yicha jahon va O‘zbekiston tajribasini qiyosiy tahlil qilishni ta’minladi. Turli mamlakatlarning yoshlardagi tarbiyasiga oid yondashuvlari solishtirilib, O‘zbekistondagi tizimning afzallikkari va kamchiliklari aniqlab olindi. Bu metod yoshlarning tarixiy ongini rivojlantirishda global tajribadan foydalanish imkonini yaratdi.

Nihoyat, kuzatish metodi orqali yoshlarning tarixiy ong va aksilogik dunyoqarashi haqidagi fikrlari o‘rganildi. Yoshlarning tarixiy qadriyatlarini anglash darajasi, ularga bo‘lgan munosabatlari va ta’sirchan omillar aniqlab olindi. Ushbu ma’lumotlar yoshlarning ma’naviy-axloqiy rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillarni to‘liq tushunishga yordam berdi.

NATIJALAR

Mamlakatimizda yoshlarning tarixiy ongi va aksilogik dunyoqarashini rivojlantirishga katta e’tibor qaratilmoqda. Bu jarayonda yoshlarning tafakkurini o‘stirish, ma’rifatini shakllantirish, nutq boyligini oshirish, va ma’naviyatlari muloqot madaniyatini egallashlari uchun keng imkoniyatlar yaratilmoqda. Yoshlarning tarbiyalanish jarayoni nafaqat bilim berish bilan cheklanmay, balki ularning ma’naviy-axloqiy rivojlanishiga ham asoslanadi.

Shu o‘rinda davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev tomonidan bildirilgan mazkur fikrni keltirilb o‘tishimiz zarur: “Ilm-ma’rifat va kasb-hunarga intilish, oilani muqaddas bilish, ma’naviy poklik, kattalarga hurmat, kichiklarga shafqat, qadriyatlarimizga sadoqat kabi ezgu fazilatlar azaldan xalqimiz, millatimizning

qonida bo‘lib kelgan. Biz mana shunday bebaho merosimizni nafaqat asrashimiz, balki uni yanada boyitishimiz, kelgusi avlodlarga bezavol yetkazishimiz kerak” [2].

Yoshlarning axloqiy fazilatlarini shakllantirish jarayoni bog‘cha yoshidan boshlanib, maktab, oliy ta’lim va oila orqali davom etadi. Axloqiy qadriyatlar, odob-axloq me’yorlari, va sharqona tarbiya orqali yosh avlodga ma’naviy bilimlar yetkaziladi. Shu ma’noda, yoshlarning o‘zbek nutqidagi sharqona odob-axloq me’yorlari va madaniyatni ifodalovchi so‘zlarni bilishi, ularning ma’naviyatini mustahkamlashga xizmat qiladi. Nutq madaniyatini boyitish, odob-axloqqa oid maqollar, hikmatli so‘zlar va she’rlarni yoshlar ongiga singdirish orqali ular keng dunyoqarashga ega bo‘ladilar. Mustaqil fikrlash, ilm-ma’rifatga intilish va doimiy izlanishda bo‘lish yoshlarning kelajakda jamiyat rivojiga munosib hissa qo‘shishlariga zamin yaratadi. Ta’lim tizimi yoshlarning barkamol shaxs sifatida shakllanishida asosiy rol o‘ynaydi. O‘quv jarayonida yoshlar nafaqat bilim oladi, balki bir-birlari bilan aloqa va munosabatga kirishishni, axloqiy qadriyatlarini o‘rganadi. Malakali o‘qituvchilar ularning ma’naviy tarbiyasiga ta’sir ko‘rsatadi, ularga axloqiy fazilatlar, urf-odatlar va qadriyatlar haqida chuqur tushunchalar beradi.

Yoshlarning tarixiy ongi va aksilogik dunyoqarashini rivojlantirishda ota-onani hurmat qilish, yaqinlarga mehr berish, kitobga muhabbat qo‘yish kabi axloqiy fazilatlar muhim ahamiyat kasb etadi. Yoshlar orasida ezgulik, botirlik, kamtarlik, rahmdillik, va donishmandlik kabi yuksak insoniy fazilatlarni rivojlantirishga qaratilgan faoliyatlar amalga oshirilmoqda. Shuningdek, yoshlarning milliy o‘zlikni anglashlari, o‘z xalqining boy tarixiy va ma’naviy merosidan faxrlanishlari uchun ma’naviyatni ifodalovchi adabiyotlardan foydalanish tavsiya etiladi [3]. Bugungi globallashuv davrida yoshlarning ma’naviyatini saqlab qolish, ularni turli yot g‘oyalarga qarshi immunitetga ega qilish uchun milliy va umuminsoniy qadriyatlarini singdirish muhimdir. Bu jarayonda davlat siyosati va ta’lim tizimi o‘zaro uzviylikda faoliyat olib borishi zarur.

MUHOKAMA

Yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev XXI asr – intellektual yoshlar asri, yoshlarimiz o‘z oldiga katta marralarni qo‘yib, ularga erishishlari uchun keng imkoniyatlar yaratish va har tomonlama ko‘mak berish – barchamiz uchun eng ustuvor vazifa bo‘lishi zarur. Shundagina farzandlarimiz xalqimizning asriy orzu-umidlarini ro‘yogga chiqaradigan buyuk va qudratli kuchga aylanishini ta’kidladilar.

Prezidentimiz 2021 yilni nima sababdan “Yoshlarni qo‘llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili” deb nomlaganini, yoshlarimiz

yurtimizning ertangi kuni, taraqqiyoti uchun mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishga qodir bo‘lgan yetuk mutaxassis, chuqur bilim va kasb-hunar egasi bo‘lishi uchun zarur zamin yaratishimiz zarurligini chuqur asoslab berdilar: “Biz islohotlarimiz ko‘lami va samarasini yanada oshirishda har tomonlama yetuk, zamonaviy bilim va hunarlarni puxta egallagan, azmu shijoatli, tashabbuskor yoshlarimizga tayanamiz... Yoshlarni zamonaviy bilim va tajriba, milliy va umumbashariy qadriyatlar asosida mustaqil va mantiqiy fikrlaydigan, ezgu fazilatlar egasi bo‘lgan insonlar etib voyaga yetkazamiz” [4].

Yoshlarning intellektual salohiyati jamiyat va inson faoliyatining turli sohalarida namoyon bo‘ladi. Bu jarayon ma’naviy barkamollik, bilim, ijodiy izlanish, ta’lim-tarbiya, mafkuraviy yetuklik, mas’uliyat va fidokorlik orqali shakllanadi. O‘zbekistonda yoshlarning intellektual salohiyatini rivojlantirishga katta e’tibor qaratilmoqda, bu jarayonda ularning tarixiy ongini va aksiologik dunyoqarashini mustahkamlash asosiy maqsadlardan biridir. Axborotlashuv va globallashuv sharoitida yoshlar intellektual salohiyatini rivojlantirish uchun keng imkoniyatlarga ega. Ta’lim-tarbiya jarayonida ular nafaqat bilim oladi, balki tarixiy ong va ma’naviyat tushunchalarini o‘rganib, ularga amaliy jihatdan amal qiladi. Yoshlar tarixiy hodisalar va shaxslar haqida bilimga ega bo‘lib, ularning hayoti va faoliyatidan saboq oladi. Bu esa yoshlarning tarixiy ongini mustahkamlashga xizmat qiladi [5].

Mamlakatimiz aholisining yarmidan ko‘prog‘ini tashkil etadigan yoshlar miqdor jihatidan yirik qatlam, katta kuch hisoblanadi. Shuning uchun ham yoshlarimizning aqlan va jismonan yetuk bo‘lishlari muhim vazifa etib belgilangan. Ya’ni Prezident Shavkat Mirziyoyev o‘z nutqlarida: “Biz yoshlarga doir davlat siyosatini hech og‘ishmasdan, qat’iyat bilan davom ettiramiz, nafaqat davom ettiramiz, balki bu siyosatni eng ustuvor vazifamiz sifatida bugun zamon talab qilayotgan yuksak darajaga ko‘taramiz” degan edi. Yoshlarning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma’naviy salohiyatga ega bo‘lib, dunyo miqyosida o‘z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo‘sh kelmaydigan insonlar bo‘lib kamol topishi, baxtli bo‘lishi uchun davlat va jamiyatning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz [6] deya fikr bildiradilar.

Yoshlarning intellektual salohiyati ularning o‘z-o‘zini anglashlari, mustaqil fikrlashlari va ijodiy izlanishlarga qiziqishlari bilan bevosita bog‘liq. Intellektual rivojlanishning samaradorligi, shuningdek, yoshlarning ma’naviy-axloqiy qadriyatlarga ega bo‘lishlari va ularni hayotga tatbiq etishlari bilan belgilanadi. O‘zbekistonda yoshlarning intellektual salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan davlat dasturlari va ta’lim loyihalari, ularning tarixiy bilimlarini chuqurlashtirish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni anglashlariga yordam beradi. Bunda yoshlar

nafaqat nazariy bilim oladi, balki amaliy faoliyat orqali ma’naviyat va intellektual salohiyatni shakllantiradi [7].

Bugungi kunda yoshlarimizga ajdodlarimiz tomonidan yaratilib, bizga qoldirilgan bebaho ilm-fan, ma’naviyat, ma’rifat, sharqona axloq-odob xazinasidan keng bahramand bo‘lish imkoniyatlarini yanada kengaytirishimiz lozim. Shuningdek, yoshlarni yonib yashashga, vatanparvarlik, mehnatsevarlikka odatlantirish, ularni mustaqil hayotga kirishga tayyorlash, turmushning achchiq-chuchuklariga bardosh berishga o‘rgatish ma’naviy tarbiyaning dolzarb vazifalaridir. Ularni barkamol inson qilib shakllantirishda ta’lim va tarbiya jarayoni mezon bo‘lmog‘i lozim.

XULOSA

Bugungi globallashuv va axborotlashuv davrida yoshlarning tarixiy ongi va aksilogik dunyoqarashini rivojlantirish strategik dolzarb masalaga aylangan. Millatning ma’naviy yuksalishi va barqaror taraqqiyoti, avvalo, yoshlarning tarixiy bilimlari, axloqiy qadriyatları va intellektual salohiyatini shakllantirish bilan bevosita bog‘liqdir. Raqamlı transformatsiya kuchaygan hozirgi sharoitda sun’iy intellekt (AI) texnologiyalari ushbu jarayonni yanada samarali amalga oshirishda muhim vositaga aylanmoqda. Xususan, AI asosidagi ta’limiy platformalar, raqamlı tarixiy manbalar, interaktiv simulyatsiyalar va virtual haqiqat texnologiyalari orqali yoshlar tarixiy bilimlarni chuqurroq va qiziqarliroq tarzda o‘zlashtirish imkoniyatiga ega bo‘lmoqda. O‘zbekistonda yoshlarning tarixiy ongi va aksilogik dunyoqarashini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylangan. Ta’lim tizimi, oilaviy tarbiya va ommaviy axborot vositalari ushbu vazifani zamonaviy texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirib, yosh avlodni mustaqil fikrlovchi, vatanparvar va ma’naviy yetuk shaxslar sifatida shakllantirishga xizmat qilmoqda.

Yoshlarning intellektual salohiyatini rivojlantirish endilikda faqat an’anaviy bilim olish jarayoni bilan cheklanmaydi. Bu jarayon sun’iy intellekt yordami bilan raqamlı savodxonlik, tarixiy tahliliy fikrlash va qadriyatlar asosida qaror qabul qilish ko‘nikmalarini ham qamrab olmoqda. Shu nuqtai nazardan, tarixiy ong va madaniy xotirani texnologik usullar bilan mustahkamlash ularning jamiyatdagi faolligi, milliy o‘zlikni anglash va axloqiy barkamolligini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Xulosa qilib aytganda, sun’iy intellekt asrida yoshlarning tarixiy ongi va aksilogik dunyoqarashini shakllantirish bo‘yicha olib borilayotgan siyosat va ta’limiy-amaliy faoliyat jamiyatning umumiy intellektual va ma’naviy salohiyatini yuksaltirishda hal qiluvchi rol o‘ynamoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI (REFERENCES)

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2021. – B. 288.
2. Shavkat Mirziyoyev: Yoshlar kelajagi bilan bog‘liq har qanday vazifa birlamchi ahamiyatga ega // <https://president.uz/oz/lists/view/4042>
3. Bobojonova Sh. Yoshlar salohiyati, ma’naviyatini yuksaltirishda ma’rifat va axloqiy fazilatlarning ahamiyati // “Yoshlarda milliy qadriyatlar orqali intellektual salohiyatni rivojlantirishning zamonaviy usullari” respublika ilmiy-amaliy anjumani, 15-aprel, 2021-yil. – B. 32-34.
4. Yangi O‘zbekistonda erkin va farovon yashaylik! (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi hamda O‘zbekiston yoshlari forumida so‘zlagan nutqidan iqtiboslar). – Toshkent: Tasvir, 2021. – B.10-11.
5. Saidov M. S. Yoshlarda milliy qadiriyatlar orqali intellektual salohiyatni rivojlantirishda pedagogik texnologiyalarning o‘rni // “Yoshlarda milliy qadriyatlar orqali intellektual salohiyatni rivojlantirishning zamonaviy usullari” respublika ilmiy-amaliy anjumani, 15-aprel, 2021-yil. – B. 209-210.
6. Mirziyoyev Sh. M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2016. – B. 16.
7. Tilayev E. R. Nurmaxmatov L. Yoshlarda intellektual salohiyatni rivojlantirish masalalariga oid islohotlar mohiyati // “Yoshlarda milliy qadriyatlar orqali intellektual salohiyatni rivojlantirishning zamonaviy usullari” respublika ilmiy-amaliy anjumani, 15-aprel, 2021-yil. – B. 218-220.